



**Jizzax viloyati statistika boshqarmasida o'tkazilgan  
Kengash yig'ilishi bayoni  
2-son**

**2024 yil 7 may**

**Jizzax shahri**

**Raislik qiluvchi:** D. Mulladjanov – viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i  
**Qatnashdilar:** Sh.Sharipov – viloyat statistika boshqarmasi boshlig'ining  
birinchi o'rinosari  
G'.Tangriev – boshqarma boshlig'i o'rinosari  
Boshqarmaning tarmoq bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limlari boshliqlari  
(ro'yxat bo'yicha)

**I. Kirish so'zi.**

**II. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2024-yil 1-choragida amalga  
oshirilgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar.**

**III. Ijro intizomini yanada mustahkamlash va jismoniy va yuridik shaxslardan  
kelib tushgan murojaatlar bo'yicha boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari  
tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalari to'g'risida.**

**IV. Qo'shimcha masalalar**

---

(D.Mulladjanov, Sh.Sharipov, G'.Tangriev, G'.Haydarov, Sh.Haydaraliyeva, D.Abdujabborov, S.Ismoilov,  
D.Turmatov, Sh.Sharipova, R.Tursunova, R.To'raqulova, D.Mayliboeva, L.Lukmanova, M.Nurmamatova,  
V.Mamatqulov, G'.Qo'shoqov, F.Soipov, Z.Jo'rayeva, D.Mulladjanov)

Navbatdagi kengaytirilgan yig'ilishini boshqarma boshlig'i D. Mulladjanov kirish  
so'zi bilan ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

U o'z so'zida Davlat statistikasini tubdan takemillashtirish yuzasidan amaldagi  
qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati farmon va  
qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash Davlat statistika  
ishlari dasturi ijrosi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi ijro hokimiyati  
organlari bilan hamkorlik qilish borasida belgilangan vazifalarning 2024 yilning dastlabki  
3 oylik yakuni bo'yicha tizim organlari faoliyati natijalarining tanqidiy tahlilini o'qib  
eshittirdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda joriy yilning yanvar-mart oylarida  
ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda  
6 368,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga  
nisbatan 107,7 foizni tashkil etdi.

Viloyat sanoat korxonalarida 2024-yilning yanvar-mart oylarida  
4889,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish  
fizik hajm indeksi 2023 yilning tegishli davriga nisbatan 112,8 foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 3 166,5 mlrd. so'mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chovachilik hamda ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 3 008,9 mlrd. so'mni (103,4 %), ovchilik sohasida ko'rsatilgan xizmatlar 0,07 mlrd. so'mni (101,4 %), o'rmon xo'jaligida 84,0 mlrd. so'mni (102,8 %), baliqchilik xo'jaligida 73,6 mlrd. so'mni (104,4 %) tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 597,1 mlrd. so'm, (dollar ekvivalentida 369,1 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga ko'paydi.

2024 yilning yanvar-mart oylarida 825,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2023 yilning mos davriga nisbatan 116,4 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlarining jami hajmi 2 812,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi 2 209,6 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 foizni tashkil qildi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 94,0 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 4,3 foizini tashkil qildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 101,5 foizni tashkil etib, 673,5 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 30,5 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 1 442,1 mlrd. so'm savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 110,8 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 65,2 foizga teng bo'ldi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 492,1 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 46,9 mln. AQSH dollarini, import 445,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 185,4 % ni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasining saldosi minus -398,3 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan 12,0 mln. AQSH dollarini va boshqa davlatlar bilan minus -410,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi tovar aylanmasida salmoqli ulush G'allaorol tumani hissasiga to'g'ri kelib 187,6 mln. AQSH doll. (38,1 %) ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 145,4 %, Jizzax shahri 143,9 mln. AQSH doll. ni (29,2 %) tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 marta, Forish tumani 114,7 mln. AQSH doll. (23,3 %) ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 martaga oshdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdag'i ulushi 65,6 foizni tashkil etdi. Sanoatda – 22,3 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,3 foizni, qurilishda – 93,4 foizni, eksportda – 53,5 foizni tashkil qilgan.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 49 109 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 26 882 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 54,7 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (48,7 %), savdo (17,5 %), sanoat (9,8 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keldi.

Yig'ilish davomida kun tartibiga mufoviq, tizimda Davlat statistika ishlari dasturining ijrosi hamda Kengashning 3 oylik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha boshqarmaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida

har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o'tilishini aytib o'tdi.

**II. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi tizimida “2024 yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” ijrosi yuzasidan 2024 yilning 1 choragi davomida amalga oshirilgan ishlarining samaradorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida.**

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi boshlig‘i (G.Xaydarov)**

2024 yilning 1-choragi yakunida Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan statistika ishlarining to‘liq hajmda bajarilishi ta‘minlandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun zarur ma’lumotlar shakllantirildi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlanishi holatini tavsiflovchi tahliliy-statistik ma’lumotlar har oyda va chorakda mahalliy hokimiyat va boshqa tegishli tashkilotlarga taqdim etib etildi.

Shu bilan birga, Jizzax viloyat teleradiokompairovski bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatalgan. 2024 yilning yanvar-mart oylarida “Jizzax.uz” va “Sangzor.uz” va barcha tuman hokimliklarining mahalliy saytlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon va qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan keng ko‘lamli profilaktika maqolalari hamda statistik-tahliliy ko‘rinishidagi ma’lumotlar yoritib borildi.

Bu borada barcha tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan har oyda OAV da chiqishlar belgilangan bo‘lib chorak yakuni bo‘yicha Jizzax shahar, Paxtakor va Do‘stlik tuman statistika bo‘limlari tomonidan chiqishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlari tomonidan profilaktika ishlari yuzasidan 1308 ta tushuntirish ishlari olib borilgan, 108 marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etish, 2308 ta buklet va qo‘llanmalar tarqatish orqali tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida profilaktika ishlari tashkil etildi. Natijada, profilaktika tadbirlari orqali jami 1563 ta holatda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato-kamchiliklarning oldi olindi va bartaraf etildi.

Hisobot intizomini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan choralar ko‘rib borish bo‘yicha Jizzax shahar, Mirzacho‘l, Baxmal va Zarbdor tuman statistika bo‘limlari sustkashliklarga yo‘l qo‘ymoqda.

Yig‘ilishda davlat statistika organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, statistik axborotlar sifati va mazmunini kengaytirish, taqdim etilayotgan statistik nashrlarni takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etilib, bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish, statistik axborotlarning ochiqligini ta‘minlash, sifati va mazmunini yanada takomillashtirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘limi boshlig‘i D.Abdujjaborov**

2024-yilning birinchi choragida tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda quyidagi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi:

2023 yil yakunlari bo‘yicha 1-kb (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyati to‘g‘risida”gi davlat statistika hisoboti bo‘yicha 2024 yil 15 may holatiga ko‘ra 13 335 ta yoki jamiga nisbatan 92,4 % subyekt hisobot taqdim etdi. Zarbdor tumani - 88,8%, Jizzax shahri - 90,0%, Sh.Rashidov - 90,4 %, G‘allaorol - 91,2% hamda Zomin tumanlari 92,1 % viloyat ko‘rsatkichidan past qamrovni ta‘minladi.

Hisobot davrida 1-kb yillik hisobotini taqdim etmaganligi uchun jami 1 179 ta subyektlarga ko‘rsatma xati chiqarilgan bo‘lib, ulardan joriy yilning 15 may holatiga ko‘ra, 50 ta subyekt tomonidan ko‘rsatma xatida ko‘rsatilgan bir oylik muddat o‘tgandan

keyin hisobot taqdim etganligi aniqlandi. Jizzax shahrida - 25 ta, Sh.Rashidov tumanida - 11 ta, Baxmal tumanida -8 ta, G'allaorol tumanida - 5 ta hamda Zomin tumanida -1 ta tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qonunda belgilangan choralarini ko'rish yuzasidan birortayam hujjatlar tegishli sud organlariga chiqarilmagan hamda ularga nisbatan hech qanday chora qo'llanilmaganligi takidlاب o'tildi.

2023 yil uchun 1-kb yillik hisobotini taqdim etmagan korxona va mikrofirmalar soni joriy yilning 15 may holatiga ko'ra jami 1098 tani tashkil etdi. Ushbu subyektlardan 708 tasi hisobotni o'z vaqtida taqdim etmagan subyektlar bo'lib, tahlil qilinganda soliq organlariga hisobot taqdim etganlar, banklarda operatsiyalar amalga oshirilganligi, gaz va elektroenergiya sarf xarajat qilganlar, eksport va import faoliyati bilan shug'ullangan hamda 2023 yil davomida oylik va choraklik statistika hisobot shakllarini taqdim etganligi ma'lum bo'ldi va ularga o'z vaqtida ko'rsatma xatlari chiqarildi.

Shuningdek, Jizzax shahri (28 ta), Sh.Rashidov (27 ta), G'allaorol (13 ta), Zomin (11 ta), Paxtakor(1 ta) tuman bo'limlari tomonidan 1-kb hisobotini topshirish tartibini buzgan tadbirkorlik subyektlariga chora ko'rish uchun chaqiruv xatlarini 10 may sanasigacha ham pochta orqali yuridik manzilga chiqarilmaganligi aniqlandi. Vaholanki, boshqarmaning 2024-yil 23 apreldagi 210-sonli topshiriq xatiga asosan 2 kun muddat ichida jarimaga tushgan subyektlarga chaqiruv xatlarini chiqarish hamda 1 oy muddatda E-ma'muriy ish tizimiga kiritish kerak edi.

#### **Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi boshlig'i v.b. S.Ismoilov**

Tuman shahar statistika bo'limlarining 2023-yilning 4-choragi uchun 4 fx hisobotini jami 28 ta fermer xo'jaligi, jumladan Zarbdor tumanida 18 ta, Sh.Rashidov tumanida 8 ta, Baxmal tumanida 1 ta va Zomin tumanida 1 ta fermer xo'jaliklari taqdim etmagan.

Shundan, Zarbdor tumanida 2 ta, Sh.Rashidov tumanida 1 ta fermer xo'jaliklari chora ko'rilib E-MA'MURIY tizimiga kiritilgan. Aksincha 4-chorak hisobotlari muddati tugaganligiga 5 oy bo'lishiga qarmasdan Zarbdor tumanida 16 ta, Sh.Rashidov tumanida 3 ta, Baxmal tumanida 1 ta va Zomin tumanida 1 ta fermer xo'jaliklari hanuzgacha belgilangan tartibda chora ko'rilmagan.

Zarbdor tumanida 3 ta fermer xo'jaliklari 1 fx hisoboti bo'yicha hanuzgacha belgilangan tartibda chora ko'rilmagan.

Viloyat bo'yicha 45 ta fermer xo'jaliklari 2023-yil yakuni bo'yicha 1 fx hisobotini 4-chorak uchun 4 fx hisobotiga nisbatan kamaytirib taqdim qilgan, jumladan Arnasoy tumanida 14 ta, Baxmal tumanida 11 ta, Zomin tumanida 9 ta, Mirzacho'l tumanida 5 ta, Zarbdor tumanida 3 ta, G'allaorol tumanida 2 ta va Paxtakor tumanida 1 tani tashkil qildi.

Shu bilan bir qatorda yillik hisobotlarning ayrim xato va kamchiliklari shu vaqtgacha bartaraf etilmagan, jumladan yetishtirilgan pilla xom-ashyosi kunlik tezkor malumot (Svotka) hamda 3-Pilla hisoboti bilan yillik hisobotlar talil qilinganda 3-pilla hisobotiga nibatan yillik hisobotlarda jami 148,5 tonna kam ko'rsatilgani aniqlanib, Arnasoy tumanida 27,7 tonna, Baxmal tumanida 21,6 tonna, Sh.Rashidov tumanida 33,4 tonna qisman Mirzacho'l tumanida 4,8 tonna hamda 6,5 tonna Zafarobod tumani hissasga to'g'ri kelmoqda.

#### **4 fx (1-chorak) hisoboti bo'yicha:**

2024-yil 1-chorak uchun 4 fx hisobotini qamrovini ta'minlanishi bo'yicha jami hisobot taqdim etuvchi fermer xo'jaliklari 7778 tani tashkil qilib, shundan 646 ta xo'jalik tomonidan hisobot muddatida taqdim etilmagan. Bulardan 495 ta fermer xo'jaliklaring yer ijara shartnomasi bekor bo'lib asoslovchi hujjatlari mavjud.

Hisobotni taqdim etmagan 151 ta fermer xo'jaliklaring 142 tasi belgilangan muddatda hisobotni taqdim etdi. 55 ta fermer xo'jaliklari chaqiruv xatlari chiqarilgan bo'lib, shulardan bugungi kunga kelib 14 nafari E-MA'MURIY ISH elektron bazasi tizimiga kiritilgan bo'lib, aksincha Zarbdor tumanida 25 ta, Baxmal tumanida 6 ta,

Sh.Rashidov tumanida 5 ta, Mirzacho'l tumanida 4 ta va G'allaorol tumanida 1 ta fermer xo'jaliklari ma'lumotlari hanuzgacha bazaga kiritilmagan.

Bugungi kunga qadar jami 8 ta, jumladan Baxmal tumanida 2 ta, Sh.Rashidov tumanida 1 ta, Do'stlik tumanida 1 ta, Zarbdor tumanida 2 ta, Mirzacho'l tumanida 1 ta va Forish tumanida 1 ta fermer xo'jaliklari hisobot taqdim etmagan.

#### **4 dx (1-chorak) hisoboti bo'yicha:**

4-dx 1-chorak uchun hisoboti katalog bo'yicha jami 300 tashkil qilib, shundan 265 ta MFY ni hisobot muddatida taqdim qilindi. Hisoboti o'z vaqtida taqdim qilmaganlar 5 tani tashkil qilib 4 tasi Zomin tumaniga, 1 tasi Sh.Rashidov tumani hissasiga to'g'ri keladi. Shundan Zomin tumanida 3 ta MFY lar tomonidan hisobot bartaraf etildib, aksincha Zomin tumanidagi 1 tasi qamrov uchun qog'oz variyatnda olingan bo'lib, shu kunga qadar E-stat 4 tizimi orqoli topshililmagan. Sh.Rashidov tumani ham kechikib taqdim qilgan MFY ga nisbatan qonun doirasida hech qanday chora ko'rilmagan.

#### **Narx statistikasi bo'limi boshlig'i v.b Sh.Haydaraliyeva**

Monitoring kuzatuv natijalari bo'yicha haftaning har seshanba va chorshanba kunlari kuzatiladigan uyushgan savdo majmualari va dehqon bozorlarida 79 turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha maksimal narxlarini kuzatishda Arnasoy tumani va Mirzacho'l tumani statistika bo'limi tomonidan doimiy va takror xatoliklar kelib chiqmoqda, ya'ni nollarning tushib qolish yoki ko'payib ketish holatlari, narxlar shaffof tarzda kiritilmayotganligi ko'plab uchramoqda.

Iste'mol narxlari indeksi kuzatuvi bo'yicha Paxtakor, Zomin, G'allaorol tumanlari va Jizzax shahar statistika bo'limlari tomonidan nooziq-ovqat guruhi bo'yicha dori vositalari narxlarini o'zgarishsiz planshetga kiritilgan.

#### **Sanoat va energetika statistikasi bo'limi boshlig'i R.To'raqulova**

2023 yil viloyatda jami sanoat faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 2375 ta bo'lib, shundan 384 tasi 2024 yilning 1-choragida 4-sanoat (JSh) tanlanma kuzatuviga tanlab olingan. Ularning 199 tasida (51,8%) ish hajmlari ko'rsatilmagan. Sh.Rashidov tumanida 4-sanoat (JSh) tanlanma kuzatuviga tushgan jami 56 ta yakka tartibdagi tadbirkordan 19 tasi hajmsiz bo'lib, bir nechta tadbirkorlik sub'yeqtalarining tashrif natijalarini qo'yishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan, bir nechtasiga tadbirkorlik turlari qo'yilmagan o'rganishdan keyin to'g'irlandi.

G'allaorol tumanida o'tgan chorakda tadbirkorlik turlari boshqa bo'lgan 1-chorakda esa boshqa bo'lib qolgan, o'rganishdan keyin to'g'irlandi. Ko'pgina tumanlarda tashrif natijalarini qo'yishda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Forish, Sh.Rashidov va Yangiobod tumanlarida tadbirkorlik sub'yeqtalarining oziq ovqat maxsulotlariga shaxsiy iste'mol uchun hajm ko'rsatilmagan.

Shu bilan birga Baxmal, Sh.Rashidov va Zomin tumanlari YaTT kuzatuvlarini sifatli darajada kuzatmaganligi, bu tumanlarda mahsulotlarning birlik naxlari xatoliklar bilan ko'rsatilganligi tanqid qilindi.

Sanoat bo'limi tomonidan berilgan vazifa va ko'rsatmalarni hamda kuzatuvlarni Jizzax shahar, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod va Paxtakor tumanlari statistika bo'limlari hodimlari boshqa tumanlarga nisbatan yaxshi va o'z vaqtida bajarganligi aytib o'tildi.

#### **Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi boshlig'i v.b. L.Lukmanova**

Jizzax shahrida "Dizayn bo'yicha xizmatlar (grafik, inter'yer, mebel va hokazolar), shuningdek chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek rassomlik san'ati" xizmat turi bo'yicha bitta mijozdan tushgan o'rtacha tushum hajmi kam, ya'ni 4,0 ming so'mga to'g'ri kelmoqda, vaholanki viloyat bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'rtacha 27,0 ming so'mni tashkil qilgan.

Forish tumanida "Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek dazmollah xizmatlari" xizmat turi bo'yicha bitta mijozdan tushgan o'rtacha

tushum hajmi bor-yo‘g‘i 5,0 ming so‘mga to‘g‘ri kelmoqda, viloyat bo‘yicha esa, ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 58,3 ming so‘mga to‘g‘ri kelgan.

G‘allaorol tumanida “To‘garaklar tashkil etish va yuritish” xizmat turi bo‘yicha bir kundagi o‘rtacha mijozlar soni ko‘p 50 ta qilib ko‘rsatilgan.

Mirzacho‘l, Paxtakor, Yangiobod tumanlarida “Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqlash” xizmat turi umuman kuzatilmagan, ushbu xizmat turi asosiy xizmat turlaridan hisoblanadi.

### **Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi boshlig‘i F.Soipov**

Viloyatda tanlanma kuzatuv o‘tkazish jarayonida kadastrlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida viloyatning barcha tumanlariga chiqqan holda o‘rganilganda Zarbdor va Paxtakor tumanlarida 4-tj kuzatuvi bo‘yicha tanlangan turar-joylarda kuzatuv ishlari oxirgi kunlarga taqab amalga oshirilmoqda.

Investitsiya va qurilish sohasi statistikasi bo‘limi tomonidan berilgan vazifa va topshiriqlarni hamda kuzatuvlarni Arnasoy, Do‘slik va Zafarobod tumanlari boshqa tumanlarga nisbatan yaxshi va o‘z vaqtida bajarganligi aytib o‘tildi.

### **Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi boshlig‘i v.b. D.Mayliboeva**

4-savdo (YATT) "Savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdag‘i tadbirkorlar to‘g‘risida" – 2024 yil I-chorak yakunlari bo‘yicha 339 ta YaTT larning savdo faoliyati kuzatilgan (jami savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchu YaTTlarga nisbatan 7,7 %).

Savdo faoliyati to‘g‘risidagi so‘rovnoma Jizzax viloyatining barcha tuman (shahar) larida o‘tkazilishi ta’mindandi. Intervyuerlar tomonidan kuzatilgan 339 ta YATTdan jami 14 ta YATTning (4,1 %) jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi 1 ta (0,5 %), nooziq-ovqat savdosi bilan shug‘ullanuvchi 13 ta (9,8 %) YaTTlarning ma’lumotlari dasturiy ta’midotga xatolik bilan kiritilganligi aniqlandi.

Zarbdor tumani statistika bo‘limi hodimi Yetmishev G‘anisher YaTT "Musurmonqul Abdusattorov Erkaboy O‘g‘li"da bir kunlik o‘rtacha savdo hajmini 400 ming so‘m qilib kam ko‘rsatgan. G‘allaorol tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Mirzabekov Umid tomonidan YaTT "Abdulla Xolbotayev Shukurovich" bir kunlik o‘rtacha savdo xajmi ma’lumotlari planshetga o‘zgartirib ikki marta xatolik bilan kiritilgan.

Shuningdek, doimiy ogohlantirilishiga qaramay ayrim intervyyuerlar guvohnomasiz so‘rov o‘tkazganligi aniqlanayotganligi ta‘kidlab o‘tildi.

### **Axborot xizmati D.Turmatov**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4366-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, Boshqarma va hudidiy statistika bo‘limlarida Viloyat statistika boshqarmasi faoliyati hamda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Tuman va shahar staistika bo‘limlari tomonidan OAV chiqish rejasi 104 ta bo‘lib, amalda 200 ta chiqish bo‘lgan. Shundan, 43 ta televideniyeda, 120 ta radioda va 37 ta gazeta va jurnallarda chiqish qilingan.

Shu o‘rinda eng yuqori ko‘rsatkich Paxtakor tumani (televideniyeda 3 ta, radio 6 ta, nashr 3 ta) da qayd etildi. Qolgan tumanlar ham rejani ortig‘i bilan bajarganligi aytib o‘tildi.

### **III. Ijro intizomini yanada mustahkamlash va jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlар bo'yicha boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijalari to'g'risida.**

(Sh.Sharipov, N.Absalimova, Sh.Sharipov)

Ijro nazoratini tashkil etish, ijro intizomini mustahkamlash borasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2009 yil 28 avgustda tasdiqlangan 11-10-soni tartibga asosan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, farmoyishlari hamda Statistika agentligi buyruqlari, topshiriqlari ijrosi yakunlari bo'yicha hududiy statistika bo'limlari tomonidan 1 va 2-jadvallar ma'lumotlari o'z vaqtida taqdim etilishi va sifatli bajarilishi bo'yicha ko'rsatmalar berib borilmoqda.

2024 yil yanvar-mart oylarida jami kelib tushgan korrespondensiyalar soni 322 tani tashkil etib, shundan 69 ta Jizzax viloyati hokimligi, korxona va tashkilotlardan, 178 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan, 18 tasi yuridik shaxslar murojaatlari hamda 1 ta jismoniy shaxslar murojaatlarini tashkil etadi.

Kelib tushgan murojaatlар boshqarma rahbariyati tomonidan nazoratga olinib, ularning barchasiga o'z muddatlarida tegishli mas'ul ijrochilar tomonidan yozma ravishda javob xati yuborilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan "Jizzax viloyati statistika boshqarmasi rahbariyati tomonidan 2024 yilda shahar va tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari uchun sayyor qabullarni tashkil etish jadvali"ga muvofiq, 2024 yil yanvar-mart oylarida joylarda 3 ta sayyor qabul uchrashuvlari tashkil etildi va ushbu uchrashuvlarda 9 ta yuridik murojaatlar kelib tushgan.

Zomin tumani statistika bo'limi tomonidan **Edo.Ijro.uz** tizimi orqali kelgan hujjatlarni o'z vaqtida ro'yxatga olib, ijroga qaratilmaganligi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident hujjatlari va Hukumat qarorlarining bajarilishi bo'yicha shakllanadigan 1-2 tartib jadvallari, hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha shakllanadigan 7 talik jadvallari boshqarmaga taqdim etilmaganligi tanqid qilindi.

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi hamda tuman va shahar statistika bo'limlari bilan birgalikda qog'oz xisoboti bo'yicha xati va jadval ko'rinishidagi ma'lumot taqdim etilmaganligi aytib o'tildi.

### **IV. Qo'shimcha masalalar**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-son farmoni bilan belgilab berilgan vazifalar ijrosi to'g'risida**

(Sh.Sharipov, V.Mamatqulov, G'.Qo'shoqov, Sh.Sharipov)

Yig'ilishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-son farmoni xususida va Jizzax viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar rejasi ijrosi to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Ushbu chora-tadbir asosida 2024-yilning 1-choragida belgilangan vazifalar amalga oshirilishi to'g'risida fikrlar bildirildi.

Boshqarmada o'tkazilgan idoraviy seminarda Jizzax viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy "Chora-tadbirlar rejasi" mazmuni va belgilangan topshiriqlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"da belgilangan vazifalar asosida boshqarmada "Huquqiy bilimlar" o'quv soatlari doimiy ravishda o'tkazilib kelinayotgani ta'kidlab o'tildi. Jumladan, joriy yil 1-choragi davomida 14 ta o'quv seminarlari tashkil etilgan. O'quv seminarlari davomida xodimlarning huquqiy savodhonligi va boshqarma faoliyatini ochiqligi to'g'risida doimiy ravishda ma'lumotlar berib borilayotgani hamda targ'ibot tadbirlerida korrupsiyaga qarshi kurash, uning oqibatlari to'g'risida, idoraviy komissiyaning vazifa va faoliyati to'g'risida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha alohida to'xtalib o'tildi. O'tgan davr davomida tayyorlangan materiallarni aholiga, tadbirkorlik sub'ektlari vakillariga, har qanday davlat statistika hisobotini topshiruvchi korxona va tashkilotlar vakillariga bukletlar doimiy ravishda tarqatish choralari ko'rilmoxda. Qonun hujjatlari mazmun-mohiyati va Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan bosma materiallar (bukletlar) tayyorlandi, barcha tuman (shahar) statistika bo'limlarga elektron shaklda yetkazilib kelinmoqda. Shuningdek, boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlab chiqilgan targ'ibot materiallari bo'limlarga tarqatildi.

Barcha tuman shahar statistika bo'limlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan ma'lumotlar chorak yakuniga qadar taqdim etilishi belgilangan bo'lsada, ma'lumotlar kechikib taqdim etilgan. Ushbu holat takrorlanadigan bo'lsa intizomiy javobgarlikka tortilishi bo'yicha ogohlantirildi.

Qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etishlari va sodir etilishi mumkin bo'lgan qonun buzilishi holatlarini oldini olish borasida doimiy ravishda maxsus seminarlar, davra suhbatlari va tushuntirish ishlarini davom ettirish hamda hududiy organlar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar ham muhokama etilib, bu borada nazorat ishlarini yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi.

#### **Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi boshlig'i M. Nurmatova**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-sun qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagagi PQ-114-sun qarorining 4-ilovasi Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 6-bandida aholini ro'yxatga olishni tashkil etish rejalashtirilgan.

2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish ishlarini quyidagi yo'naliishlarda tizimli davom ettirish:

-aholini ro'yxatga olishni aholining keng ommasiga tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanish uchun videorolik, banner, flayer va bukletlar tayyorlash;

- 2021-yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish savolnomalari shakllarini takomillashtirish;

- xalqaro tajriba va ekspertlarning tavsiyalari asosida "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimini takomillashtirish;

- "STATA" amaliy dasturiy paketi litsenziyasini xarid qilish va unda ro'yxatga olish natijalarining chiquvchi jadvallari namunalarini shakllantirish;

- aholini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini ishlab chiqish.

2. 2025-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish ishlarini amalga oshirish.

3. 2026-2027-yillarda Aholini ro'yxatga olish natijalarini tayyorlash va e'lon qilish ishlarini amalga oshirish belgilab berilganligini aytib o'tdi.

Arnasoy, Do'stlik, Zarbdor va Zafarobod tumanlarida xonadonlarni raqamlanishi foizi pastligicha qolmoqda.

Bugungi kunga kelib viloyat bo'yicha ko'cha nom belgilarini o'rnatish ishlari sust olib borilayotganligi sababli ko'cha nom belgilarini o'rnatish foizi pastligicha qolayotganligi aytib o'tildi.

Bundan tashqari tuman statistika bo'limlariga yuqoridagi qarorlarni ijrosini ta'minlash maqsadida keng ommaga targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish topshirilganligi aytib o'tildi. Bu borada Zomin tumani maktabalarida targ'ibot ishlari sust olib borayotganligi tanqid qilindi.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi boshliq o'rnbosarlari, boshqarmaning tarkibiy bo'limmalari hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida.**

Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i V.Mamatqulov o'z hisobotida hisobot davrida statistika organlarining kadrlar potensialini mustahkamlash, ularning malakasini hamda kasbiy ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilganligi to'g'risida aytib o'tdi.

2024-yil uchun tasdiqlangan boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi doirasida, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida shu kunga qadar jami 23 nafar, shundan 3 nafar hodim AKT sohasida malaka oshirganligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, yig'ilishda boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limlaridagi mavjud bo'sh ish o'rnlarini to'ldirish bo'yicha Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali (vacancy.argos.uz) orqali ochiq mustaqil tanlov e'lon qilinganligi gapirib o'tildi.

#### **Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi boshlig'i T.Xolboev**

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo'limlariga 2024 yil 1-chorak uchun 164,1 mln. so'm konsalting rejasi belgilab berilgan. Shundan 77,2 mln. so'mlik konsalting tushumi qilingan bo'lib, rejaga nisbatan 47,1 % ga bajarilgan xolos.

Jumladan, konsalting tushumi rejasini eng yuqori Arnasoy tumani 6,72 mln. so'm, (91,7 %), Forish tumani 9,39 mln. so'm (87,3%), Mirzacho'l tumani 5,2 mln. so'm (80,0%) bajargan bo'lsa, Sh.Rashidov 5,3 mln. so'm (25,5%), Baxmal tumani 3,1 mln. so'm (20,5%) hamda Do'stlik tumani bor yo'g'i 1,1 mln. so'mga (14,2%) bajarganligi tanqidiy muhokama qilindi hamda 2-chorak yakuni bilan 6 oylik rejani to'liq yopish choralarini ko'rish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

**Kompleks o'rganishlar reja-jadvaliga asosan 2024 yilning 1-choragida tuman statistika bo'limlarida o'tkazilgan o'rganishlar natijalari to'g'risida**

Joriy yilning I-choragida Jizzax viloyati statistika boshqarmasining 2024 yil 4-yanvardagi 2-i sonli buyrug'inining 2-ilovasiga muvofiq, fevral oyida Jizzax shahar, mart oyida Sh.Rashidov tumani statistika bo'limlarida amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjalarning ijrosi yuzasidan o'tkazilgan kompleks o'rganishlar natijalari tanqidiy muxokama qilindi.

Bunda, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ushbu tuman statistika bo'limlari boshliqlari hisobotlari eshitilib, bu borada ishlarni tizimli ravishda tashkil etish va nazoratni yanada kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Qolaversa bo'limlarda planshet jadvallar va yakuniy jadvallar yuritganligi, lekin o'rganish jarayonida to'liq tartib asosida jildlarga tikib borilmaganligi aniqlanib, tartib asosida chop etilib tikilganligi tanqidiy muhokama qilindi hamda ish yuritishni to'g'ri olib borish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024 yil 7 maydagi 3-sonli Xay’at yig‘ilishi bayoni va unda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan:**

Yig‘ilishda, boshqarma boshlig‘i D.Mulladjanov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024 yil 1-choragi yakunlariga bag‘ishlangan Xay’at yig‘ilishining 3-sonli bayoni va unda belgilangan vazifalarni yig‘ilish ishtirokchilariga o‘qib eshittirdi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga doir Davlat dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatlari va o‘z muddatida ijrosini ta’minlash borasida Jizzax viloyati statistika boshqarmasi tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Yig‘ilish yakunida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 oktyabrdagi 855-son qarori ijrosi yuzasidan agentlik tomonidan ishlab chiqilgan reglament asosida ham to‘xtalib 2024 yil 1-choragi davomida hududiy statistika organlari faoliyati samaradorligini baholash yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyati statistika boshqarmasining faoliyati Respublika reytingida 13 o‘rinni egallaganligi va 2023 yilning 4 choragiga nisbatan o‘rni o‘zgarmagani to‘g‘risida aytib o‘tdi va kelgusida natijalarni yanada yaxshilash bo‘yicha ko‘rsatma va vazifalarni belgilab berdi.

Kun tartibidagi masalalarni muxokama qilib, Kengash yig‘ilishi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida 2024 yil 7 may kuni o‘tkazilgan Milliy statistika tizimini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlarida belgilab berilgan vazifalar bo‘yicha davlat statistika organlarida 2024 yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan 3-sonli kengaytirilgan Hay’at yig‘ilishi bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i (M.Nurmamatova) tuman (shahar) statistika bo‘limlari boshliqlari bilan birgalikda:

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora tadbirdari to‘g‘risida”gi 710-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-114-son qarorining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha har oyda maktablarda seminarlar tashkil etish, sayt va gazetalarda maqolalar chop etish hamda televideniyeda chiqishlar qilishni tashkil etsinlar.

4. Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan Reglament asosida MFYlarda raqamlanmagan uy va xonadonlarga raqam o‘rnatilganlik holati hamda nomi o‘zgargan ko‘chalarga yangi nom belgilarini o‘rnatilishini doimiy monitoring qilib, ma’lumotni tasdiqlangan holda boshqarmaga taqdim etsinlar.

5. Boshqarma boshlig‘i D.Mulladjanovning Milliy statistika tizimini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlarida belgilab berilgan vazifalar bo‘yicha davlat statistika organlarida 2024 yil 1-chorak yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga doir qabul qilingan farmon, qaror va farmoyishlari doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi boshlig‘i G.Xaydarov, Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘limi boshlig‘i D.Abdujjaborov, Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

boshlig'i S.Ismoilov, Sanoat va energetika statistikasi bo'limi boshlig'i R.To'raqulova, Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi boshlig'i v.b. D.Mayliboeva, Narx statistikasi bo'limi boshlig'i v.b Sh.Haydaraliyeva, Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi boshlig'i v.b. L.Lukmanova, Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi boshlig'i N.Xoliqov, Raqamlashtirish va ma'lumotlarni saqlash markazi boshlig'i M.Muradov, Jismoniylar shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi yetakchi mutaxassisi Sh.Sharipova, Axborot xizmati D.Turmatov, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi boshlig'i M.Nurmamatova, Bosh yuriskonsult G'.Qo'shaqov, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i V.Mamatqulov hamda Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi boshlig'i T.Xolboevlarning 2024 yilning 1-choragida belgilangan vazifalarning ijrosi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

#### 7. Boshqarma tarmoq bo'limlari boshliqlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Farmon, qaror va farmoyishlari bilan davlat statistika sohasining oldiga belgilab berilgan, shuningdek, boshqarmaning idoraviy hujjatlari bilan ijrosiga bevosita o'zlar mas'ul etib belgilangan vazifalarning o'z vaqtida puxta va samarali ijrosini ta'minlasinlar:

Shuningdek, o'zlar mutasaddi bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha Davlat statistika ishlar dasturida belgilangan statistika ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin, bunda yuzaga kelgan xato va kamchiliklar, muammolarni tezkorlik bilan o'z vaqtida hal etish choralarini ko'rib borsinlar;

Statistik tahlillar sifatini yanada kuchaytirgan holda, axborot-tahliliy ma'lumotlar mazmunini kengaytirilishi hamda ularni doimiy ravishda veb-saytlarga joylashtirilishini tashkil etsinlar;

Barcha yo'nalishlar bo'yicha joylarda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlarni to'liq va sifatli tashkil etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar hamda kuzatuv natijalari bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligi, haqqoniyligi va sifatliligi yuzasidan tahlillarning har tomonlama puxta tashkil etilishi ta'minlasinlar:

Qolaversa bajarilishiga mas'ul bo'lgan barcha vazifalar bo'yicha (shahar) tuman statistika bo'limlari faoliyati yuzasidan monitoring va nazorat ishlarini yanada kuchaytirsinlar hamda vazifalarni joylarda samarali ijro etilishi yuzasidan ularga doimiy amaliy yordam berish choralarini ko'rilsin.

#### 8. Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi boshlig'i (G'.Xaydarov):

- Davlat statistika ishlar dasturida belgilangan statistika ishlarini tizim bo'yicha o'z muddatlarida, to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borsin;

- hududiy statistika organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan sohaga oid yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni keng ko'lamda va samarali tashkil etilishi muvofiqlashtirib borsin;

- profilaktika ishlar bo'yicha ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda chiqishlar tashkil etilishi nazoratga olsin.

- boshqarma hamda (shahar), tuman bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda aniqlangan huquqbazarliklar bo'yicha ma'muriy ishlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritilishi, to'g'ri rasmiylashtirilishi va o'z muddatida ijro etilishi ta'minlasin:

- Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlarida mavjud bo'lishi shart bo'lgan 10 ta papkalardagi oylik, choraklik, yillik hisobot shakllari va jadvallari hamda planshetlar, majburiy tarqatmalar o'z vaqtida tartib asosida tikib borilishini nazoratga olsin:

#### 9. Boshqarma yuriskonsulti G'.Qo'shoqov hisobot intizomini buzgan mansabdar shaxslarga qo'llanilayotgan jarima hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazsin, hujjatlari

sudlardan qaytganda hududlarga chiqqan holda yuridik tomonlama ko'mak bersin.

10. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi (Sh.Sharipova)

- ijro intizomi bo'yicha tuman (shahar) statistika bo'limlarida doimiy ravishda monitoring kuzatuvlari olib borilsin;

- bajarilgan ishlar natijasi yuzasidan muntazam ravishda rahbariyatga axborot kiritib borsin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari ijrosini o'z vaqtida va to'liq ta'minlash, hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomini mustahkamlash borasida belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsin;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 apreldagi PQ-2881-son qarorida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlab, ijro intizomi holatini tizimli tahlil qilish, hujjatlar ijrosi bo'yicha kunlik nazoratni to'liq tashkil etish choralarini ko'rsinlar;

- kelib tushgan korrespondensiyalarni ijro intizomining avtomatlashtirilgan nazorati dasturi (Edo.ijro.uz) orqali ro'yxatga olinishini ta'minlab, hujjatlar ijrosini ushu tizim orqali to'liq nazorat qilib borilishini tashkil etsin;

- boshqarma, tuman (shahar) statistika bo'limlariga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarni qat'iy ravishda amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida o'z vaqtida va puxta ko'rib chiqilishini tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan muntazam monitoring, nazorat va tahlil ishlarini olib borsin;

- ish yuritish, hujjatlar bilan ishlash, ijro nazoratini tashkil etish, murojaatlar bilan ishlash masalalarida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirish yuzasidan tuman (shahar) statistika bo'limlariga doimiy amaliy va maslahat yordami berib borilishini tashkil etsin;

#### 11. Axborot xizmati yetakchi mutaxassisi D.Turmatov

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini taminlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4366-son qarorida belgilangan vazifalarning so'zsiz ijrosini taminlash yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- boshqarma va (shahar) tuman statistika bo'limlari tomonidan ommaviy axborot vositalariga muntazam chiqishlar yo'lga qo'yilsin;

- tuman (shahar) statistika bo'limlarining OAVga chiqishlari bo'yicha nazoratni kuchaytirsin va har haftalik ma'lumotlar rahbariyatga kiritib borilsin;

- 2-chorak yakuni bilan radio eshittiruvlar sonini belgilangan rejaga yetkazish choralarini ko'rsin.

#### 12. Dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (M.Murodov):

Boshqarma rasmiy veb-saytining samarali va uzlusiz faoliyat ko'rsatishini, ularning doimiy ravishda takomillashtirib, kengaytirilgan, ochiq va dolzarb statistik-tahliliy axborotlar bilan yangilab borilishi yuzasidan shaxsiy nazoratni yanada kuchaytirsin.

Tarmoq bo'limlarida har oy, chorak, yillik ko'rsatkichlari asosida belgilangan videoroliklar sonini kamida rejaga etkazish va to'liq bajarganligi uchun har chorak yakuni bilan ustama belgilash va videoroliklarni sifatini yanada takomillashtirish ta'minasin.

Boshqarma, tuman (shahar) statistika bo'limlarida axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan belgilangan vazifalarning to'liq va samarali bajarilishining nazoratni yanada kuchaytirsin.

Barcha tuman (shahar) statistika bo'limlari xonalaridagi kameralarning doimiy ishlab

turishini shaxsan nazoratga olsin.

13. Zomin tumani statistika bo‘limi yetakchi mutaxassisasi G‘oziev Nodir Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘limi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yanligi uchun ogohlantirilsin va kelgusida yana shunday holat takrorlansa intizomiy jazo chorasi berilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

14. Sh.Rashidov tumani statistika bo‘limi bosh mutaxassisasi Qobilov Akbar, Baxmal tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Eshonqulov Azamat, Zomin tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Yuldashev Fozil, hisobot taqdim etmagan tijorat korxonalarga ko‘rsatma va chaqiruv xatlarini o‘z vaqtida jo‘natmaganligi, 1-chorak konsalting rejasini bajarmaganligi uchun, G‘allaorol tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Mirzabekov Umid 2023 yilda qo‘llanilgan jarimalarni o‘z vaqtida undirmaganligi hamda 1-chorak konsalting rejasini bajarmaganligi uchun “ogohlantirish” berilsin.

15. Zarbdor tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Turdiboyev G‘ayrat, Mirzacho‘l tumani statistika bo‘limi boshlig‘i Xursanov O‘tkir ma‘muriy jarimalar bilan yetarlicha ishlamaganligi, 1-chorak uchun belgilangan konsalting rejasini bajarmaganligi 2-chorak yakuni bilan 6 oylik konsalting rejasini to‘liq bajarmasa, “xayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

16. Arnasoy, G‘allaorol, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor tumanlari va Jizzax shahar statistika bo‘limining narx kuzatuvlari bo‘yicha registratorlari uyushgan savdo majmualari va dehqon bozorlarida 79 turdagи oziq-ovqat mahsulotlarining narxlarini hamda iste’mol narxlari indeksi kuzatuvini o‘tkazishda takror xatoliklarga yo‘l qo‘yib kelayotganligi uchun “ogohlantirish” berilsin.

17. Barcha tuman (shahar) statistika bo‘limlari boshliqlari 6 oylik yakuni bilan 1- va 2-choraklar uchun belgilangan konsalting tushumi rejasining bajarilishini ta’minlamasa, “xayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

18. Mirzacho‘l (O‘.Xursanov), Paxtakor (A.Murunov), Yangiobod (Yo.Sharofboev) tumanlari statistika bo‘limlari boshliqlari “Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqlash” xizmat turi bo‘yicha kuzatuvlarni shaxsan nazoratga olsin, ushbu xizmat turi bo‘yicha yana xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan taqdirda “xayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

19. Narx statistikasi bo‘limi boshlig‘i v.b. Sh. Xaydaralieva bo‘lim hodimlari bilan birgalikda agentlik tomonidan o‘tkazilgan test sinovlarini qoniqarsiz topshirganligi uchun ogohlantirilsin.

20. Zarbdor tumani 6 ta, Baxmal tumani 1 ta, Jizzax shahri 3 ta suddan qaytgan ma‘muriy jarimalarni 1 iyunga qadar bartaraf etish, ya’ni sud qarorini chiqarish choralarini ko‘rsin. Ushbu muddat ichida bartaraf etilmasa bo‘lim boshliqlariga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

21. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi (V.Mamatqulov):

- Boshqarma tarmoq bo‘limlari, tuman (shahar) statistika bo‘limlari xodimlarining ishga o‘z vaqtida kelib-ketishini shaxsan nazoratga olsin;
  - Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman (shahar) statistika bo‘limlaridagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish bo‘yicha Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini ([vacansy.argos.uz](http://vacansy.argos.uz)) orqali ochiq mustaqil tanlov e’lon qilinishi ta’minlansin;
  - boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlari shtat birligidagi barcha xodimlarni <https://hrm.argos.uz/> dasturiga to‘liq kiritib borsin;
  - tizimdagи barcha xodimlarni ishga o‘z vaqtida kelishini doimiy ravishda monitoring qilib borsin;
  - “Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida 2024 yilda davlat statistika organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi”ga muvofiq, joriy yil o‘quv kurslari va rejaga asosan

boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlari xodimlarini malakasini oshirishni, tinglovchilarni o‘quv kurslarida to‘liq ishtirok etishini va test natijalaridan yuqori ball olishini nazorat qilsin.

22. Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari, boshqarma tarmoq va tuman (shahar) statistika bo‘limlari:

Reytingdagi tegishli indikatorlar bo‘yicha belgilangan parametrlarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rsinlar.

23. Kengash yig‘ilishi qarorlari ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Kengash mas’ul kotibi**

**G‘. Xaydarov**